

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Бекмуродов Мансур IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ROLI.....	5
2. Сеитов Азамат, Вахидов Имран РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧАЮЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ В КОНТЕКСТЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	16
3. Латипова Нодира, Турсунов Рустам, Кара Шохсанам ВОСПРИЯТИЕ НАСИЛИЯ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ.....	25
4. Karimov Bobir YOSH RAHBARLARDA KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	33
5. Сабирова Умида, Эрбаева Диёра ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ И ГАРМОНИЗАЦИЯ ТРУДОВОЙ И СЕМЕЙНОЙ РОЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	40
6. Zaitov Elyor O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARI TRANSFORMATSIYASINING INSTITUTIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	46
7. Хидиров Сухроб ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА МИЛЛАТЛАРАРО СТЕРЕОТИПЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ХАВФСИЗЛИККА ТАЪСИРИ (ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТЛАР АСОСИДА)...	54
8. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI JAMIYAT FENOMENINING SOTSIOLOGIK ASOSLARI.....	60
9. G'oyibov Elyor O'ZINI O'ZI TAKOMILLASHTIRISH (SELF-MANAGEMENT) OMILINI RIVOJLANISHINING GURUHIY DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	67
10. Ibragimov Murodjon YOSHLAR TASHKILOTLARINING KOMMUNIKATIV FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA IJTIMOIYLAHUV OMILINING O'RNI.....	73
11. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” IJTIMOIY HARAKATIDA MOTIVATSIYA, KO'NIKMA VA MOLIYAVIY KO'MAK TIZIMI.....	82
12. Tadjibayeva Venera BOQIMANDALIK TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK MAZMUN-MOHİYATI.....	89


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Бекмуродов Мансур,

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридagi
davlat siyosati va boshqaruvi Akademiyasi
professori, sotsiologiya fanlari doktori

ИЖТИМОЙ-МА'НАВИЙ МУҲИТНИ СОҒ'ЛОМЛАСHTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ROLI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20064159>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'рни va ahamiyati sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, mahalla va jamoat tashkilotlarining jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash va aholining faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi ishtiroki o'rganiladi. Shuningdek, mazkur institutlarning ijtimoiy nazorat, jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni kuchaytirishdagi funksiyalari ochib beriladi. Tadqiqot natijasida ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqaror rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, ijtimoiy-ma'naviy muhit, nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy nazorat, jamoatchilik fikri, mahalla instituti, ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik faolligi.

Бекмуродов Мансур,

профессор Академии государственной
политики и управления при
Президенте Республики Узбекистан,
доктор социологических наук

РОЛЬ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ОЗДОРОВЛЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СРЕДЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье с социологической точки зрения анализируются роль и значение институтов гражданского общества в оздоровлении социально-духовной среды. В частности, исследуется участие негосударственных некоммерческих организаций, средств массовой информации, махалли и общественных объединений в обеспечении социальной стабильности в обществе, укреплении духовных ценностей и формировании активной гражданской позиции населения. Рассматривается роль этих институтов в обеспечении социального контроля, формировании общественного мнения и развитии эффективного взаимодействия между государством и обществом. По результатам исследования разработаны научные выводы и практические рекомендации, направленные на повышение эффективности институтов гражданского общества в обеспечении устойчивого развития социально-духовной среды.

Ключевые слова: гражданское общество, социально-духовная среда, негосударственные некоммерческие организации, социальный контроль, общественное мнение, институт махалли, социальная стабильность, гражданская активность.

Bekmurodov Mansur,
professor of the Academy of Public Policy
and Administration under the
President of the Republic of Uzbekistan
doctor of sociological sciences

THE ROLE OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN IMPROVING THE SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT

ABSTRACT

This article analyzes the role and significance of civil society institutions in improving the socio-spiritual environment from a sociological perspective. In particular, it examines the participation of non-governmental non-profit organizations, mass media, the mahalla institution, and public associations in ensuring social stability, strengthening moral values, and fostering an active civic position among the population. The functions of these institutions in exercising social control, shaping public opinion, and enhancing interaction between the state and society are also explored. Based on the research findings, scientific conclusions and practical recommendations have been developed aimed at increasing the effectiveness of civil society institutions in ensuring the sustainable development of the socio-spiritual environment.

Keywords: civil society, socio-spiritual environment, non-governmental non-profit organizations, social control, public opinion, mahalla institution, social stability, civic engagement.

KIRISH

Har qanday jamiyatda barqaror rivojlanish undagi umumiy holat manzarasi mavjud siyosiy tuzum va ijtimoiy-ma'naviy muhitning qay darajada sog'lomligiga bog'liqdir. Sog'lom muhit mohiyatan ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ahloqiy omillar mahsuli bo'lib inson qadri, axloqiy me'yorlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarda namoyon bo'ladi. Ana shunday sog'lom muhitni shakllantirish va mustahkamlashda mamlakatdagi fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va roli beqiyosdir.

Fuqarolik jamiyati institutlari – bu nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va turli yo'nalishdagi ijtimoiy harakatlardan iborat bo'lib, ular davlat va jamiyat davlat va fuqaro o'rtasida o'ziga xos ko'prik hamda vositachilik vazifasini bajaradi. Masalan, siyosiy partiyalar, O'zbekiston "Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi, O'zbekiston Respublikasi Mahalla uyushmasi, "Sog'lom avlod" fondi, "Yuksalish" umummilliy harakati yoki Yoshlar ittifoqi kabi tashkilotlar jamiyatdagi ijtimoiy va ma'naviy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatib kelayotganligi ma'lumdir.

METODOLOGIYA

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida davlat va jamiyat munosabatlari tubdan o'zgardi. Islohotlargacha bo'lgan davrda nodavlat notijorat tashkilotlariga hukumat tomonidan ishonchsizlik bilan qaralib, ularning faoliyatiga har tomonlama to'sqinlik qilingan, moliyaviy oqimlari to'xtatilgan va davlat idoralari faoliyatiga xolis baho berish imkonini beruvchi jamoatchilik nazorati mexanizmlari yaratilmagan edi. Bugungi kunga kelib, "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" tamoyili asosida fuqarolik jamiyati davlatning asosiy hamkori sifatida belgilab olindi. Buni 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida bob kiritilib [1], ularning maqomi mustahkamlanganida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishning asosiy omili – bu yuksak ma'naviyatdir [2]. "Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, inson qadri va uning ma'naviy kamoloti bilan

belgilanadi” [3]. Bu fikr ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirish inson kapitali va fuqarolik faolligi bilan uzviy bog’liq ekanini ko’rsatadi. “Davlat va jamiyat o’rtasidagi ochiq muloqot fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omilidir [4]”. Fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy funksiyalaridan biri – muloqot va ijtimoiy nazorat ekanligini asoslaydi.

ASOSIY QISM

Fuqarolik jamiyat institutlarining asl mohiyati va mazmuni uning ijtimoiy xususiyatida namoyon bo’ladi:

1. Birlashtiruvchilik (integrativ) xususiyati. Bu xususiyat uch jihat, ya’ni odamlarni uyushtirish, hamjihat bo’lish, hamkorlik qilishni o’zida namoyon etadi.

2. Fuqarolik jamiyat institutlarining vositachilik (mediatorlik) xususiyati turli muammolar va nizolar maqbul yechimini topish hamda muvozanatli hal etishda namoyon bo’ladi.

3. Odamlarning fuqarolik ijtimoiy-ma’naviy hamda faolligini oshirish xususiyati.

4. Axborot yetkazish xususiyati davlat siyosati va dunyo voqealari mohiyatini idrok etishga ko’maklashadi.

5. Nazorat qilish xususiyati. Bu xususiyat davlat tuzilmalari faoliyati va jamiyatdagi axloq, turmush tarzi o’zgarishlarini doimiy nazorat qilishda namoyon bo’ladi.

6. Ijtimoiy qo’llab-quvvatlash xususiyati. Bu xususiyat negizida fuqarolik jamiyati institutlari aholiga moddiy va ma’naviy yordam berishni tashkil etishda o’zligini namoyon etadi.

7. Fuqarolik jamiyat institutlarning tarbiyalash xususiyati. Bu xususiyat aholi turli tabaqa vakillariga, hususan yoshlarning ma’naviyati, maqsad va intilishlarini jamiyatning qadriyatlariga monand tarzda muvofiqlashtirish va yo’naltirish tarzida namoyon bo’ladi.

8. Ta’lim funksiyasi. Fuqarolik jamiyat institutlari odamlarning davlat ta’lim tizimidan tashqari shakllarda bilimlarini oshiradi.

9. Vijdon erkinligini ta’minlash xususiyati. Bu xususiyat odamlarning e’tiqodi diniy yo’nalishi doirasidagi ehtiyoj va intilishlarini qo’llab-quvvatlashda namoyon bo’ladi.

Bugungi kunda O’zbekistonda 10000 dan ortiq fuqarolik jamiyati institutlari mavjuddir. Fuqarolik jamiyati institutlari aholi, ayniqsa yoshlar o’rtasida vatanparvarlik, kasbi komillik, bag’rikenglik, halollik kabi fazilatlarini keng yoyishga xizmat qiladi. Turli ma’rifiy tadbirlar, seminarlar, davra suhbatlari orqali jamiyatda sog’lom muhitni qaror toptiriladi. Shu tariqa, O’zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlari fuqarolarning erkin faoliyati, tashabbuskorligi va jamoat manfaatlarini ifoda etish orqali davlat va jamiyat o’rtasida o’ziga xos ko’prik vazifasini bajaradi.

Keyingi yillarda sohaga bevosita hamda bilvosita oid bo’lgan yigirmadan ziyod Qonun, Prezident hujjatlari va hukumat Qarorlari qabul qilindi. Xususan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga daxldor o’nta qonunga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritildi. Sohani tizimli rivojlantirish maqsadida 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, unga ko’ra nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash hajmini qariyb ikki barobarga oshirish vazifasi belgilandi. Shu bilan birga, “O’zbekiston – 2030” strategiyasida jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish muhim yo’nalish sifatida qayd etildi. Prezident Sh.M.Mirziyoevning 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni [5] esa bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Fuqarolik jamiyat institutini ijtimoiy hamda moliyaviy qo’llab-quvvatlash tizimida ham katta ijobiy o’zgarishlar amalga oshirildi. Ijtimoiy institutlarni qo’llab-quvvatlash hajmi 2017-yilga nisbatan yuz karra oshib, birgina 2025-yilning o’zida sohaga 1 trillion 200 milliard so’m mablag’ jalb qilindi. Agar oldingi yillar kesimida qaralsa, so’nggi yetti yilda davlat byudjetidan bu maqsadlar uchun 718 milliard so’m ajratilgan bo’lib, bu 2008-2016-yillarga nisbatan o’n ikki barobar ko’pdir. Tashkilotlarning chet eldan oladigan mablag’lari va mol-mulkidan adliya organlari bilan kelishilgandan so’ng hech qanday to’siqlarsiz foydalanishi mumkinligi belgilandi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining Huquqiy himoyasini kuchaytirish yo’nalishida muhim qadam qo’yilib, Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi tomonidan 2025-yil 15-aprelda qabul qilingan va

Senat tomonidan 30-aprelda ma'qullangan Qonun bilan "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi" Kodeks yangi 197-8-modda bilan to'ldirildi [6].

Ijtimoiy davlat siyosati jamiyatda ijtimoiy adolat, barqarorlik va fuqarolarning munosib hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan. Davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik ijtimoiy barqarorlikning muhim omilidir [7]. Nodavlat notijorat tashkilotlari uchun zarur infratuzilma yaratish va ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash borasida ham keng ko'lamli ishlar qilindi. Jumladan, hududlarda maxsus Nodavlat notijorat tashkilotlari uylari tashkil etilib, ularga 500 ga yaqin tashkilot bepul joylashtirildi. Ushbu soha faollarini rag'batlantirish maqsadida Prezident Farmoni bilan "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishoni ta'sis etildi. Mazkur ko'krak nishoni bilan hozirga qadar 150 nafarga yaqin shaxs taqdirlandi. Shuningdek, 2021-2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida NNTlar vakillarini o'qitish uchun tashkil etilgan maxsus o'quv kurslarida 750 nafar NNTlar xodimlari o'z malakasini oshirdi.

"Fuqarolik jamiyati – bu davlatdan nisbatan mustaqil bo'lgan, fuqarolarning o'z manfaatlarini erkin ifoda etish va himoya qilishga xizmat qiluvchi ijtimoiy institutlar tizimidir". Bu ta'rif fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishdagi mustaqil va faol rolini asoslaydi [8].

Jurnalistlar o'rtasida o'tkazib kelinayotgan "Oltin qalam" milliy mukofotida esa fuqarolik jamiyati sohasini yoritish bo'yicha maxsus nominatsiya joriy etildi. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida bugungi kunda mamlakatda 9627 ta NNT, 9008 ta mahalla organi, 2490 ta ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritmoqda va ularda 150 mingdan ortiq fuqaro mehnat qilmoqda.

Davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik institutlarining ishtirokini kengaytirish maqsadida barcha darajadagi davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatining institutsional jihatdan takomillashtirilishi ham e'tiborga molikdir. Bugungi kunda mazkur kengashlar davlat idoralarining yopiq tizimdan ochiq muloqot formatiga o'tishini ta'minlovchi, qarorlar qabul qilish jarayonida jamiyat manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi hamda bevosita ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi o'ziga xos strategik ko'prik vazifasini bajarmoqda. Mazkur tuzilmalarning mustaqil fuqarolik instituti sifatida faollashuvi davlat apparatlarining xalq oldidagi hisobdorligi va shaffofligini oshirishda muhim drayverga aylandi.

Ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lib, inson va jamiyat kamolotini belgilaydi. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Jamiyatdagi ma'naviy muhit insonlarning xulqi, qadriyatlarini va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi [9]. Fuqarolik jamiyati institutlari aynan shu muhitni shakllantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatning eng yirik va nufuzli fuqarolik platformasiga aylangan Mahalla instituti va "Yuksalish" harakati va taraqqiyot strategiyasiga markazi faoliyati bu islohotlarning amaliy ko'rinishi deyish mumkin. Jamoatchilik nazoratini o'rnatish va fuqarolik tashabbuslarini ro'yobga chiqarishda mazkur fuqarolik institutlarining o'rni va roli katta.

Ta'kidlash joizki, 2026-yil va undan keyingi davr uchun fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangi besh yillik strategiya ishlab chiqilishi rejalashtirilgan. Ushbu jarayonda ijtimoiy buyurtma berish tizimini to'liq raqamlashtirish va moliyalashtirish hajmini yana ikki karra oshirish, shuningdek, Hayriya tashkilotlarini tuzish tartibini soddalashtirish maqsad qilingan. Bularning barchasi Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari davlatning eng ishonchli tayanchi sifatida rivojlanishda davom etishini va xalq farovonligi yo'lidagi ezgu tashabbuslar markazida bo'lishini kafolatlaydi.

Mamlakatimizdagi nodavlat tashkilotlar faoliyatiga teranroq razm solinsa, ularda umuminsoniy qadriyatlar quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi: avvalo, fuqarolik jamiyati institutlarining eng muhim xususiyati – ixtiyoriylikdir. Ya'ni, ular fuqarolarning o'z hohishi va tashabbusi asosida tashkil etiladi va ularda ishtirok etish majburiy hisoblanmaydi. Bu esa jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Fuqarolar o'z manfaatlarini himoya qilish, muayyan muammolarni hal etish yoki jamiyat rivojiga hissa qo'shish maqsadida bunday tashkilotlarga birlashadilar.

Ikkinchi muhim jihat – bu institutlarning davlatdan nisbatan mustaqilligidir. Ular davlat organlariga bo‘ysunmaydi, ammo o‘z faoliyatini qonun doirasida amalga oshiradi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari davlat bilan hamkorlik qilishi, turli ijtimoiy dasturlarda ishtirok etishi mumkin. Bu hamkorlik jamiyatda barqarorlik va taraqqiyotni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolik jamiyati institutlarining yana bir o‘ziga xos xususiyati – notijorat faoliyat yuritish xarakteri hisoblanadi. Ya‘ni, ularning asosiy maqsadi moliyaviy foyda olish emas, balki jamoat manfaatlariga xizmat qilishdan iborat. Ular ijtimoiy himoya, ta‘lim, ekologiya, inson huquqlari kabi turli sohalarda faoliyat olib borib, jamiyat muammolarini hal qilishga ko‘maklashadi.

Bundan tashqari, ushbu institutlar turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifoda etadi. Masalan, yoshlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, tadbirkorlar va boshqa qatlamlar o‘z manfaatlarini aynan shu tashkilotlar orqali ilgari suradilar. Bu esa jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining muhim vazifalaridan biri – jamoat nazoratini amalga oshirishdir. Ular davlat organlari faoliyatini kuzatib boradi, kamchiliklarni aniqlaydi va jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Bu esa davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashga yordam beradi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – mahalla institutining mavjudligidir. Mahalla fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida aholini birlashtiradi, ijtimoiy muammolarni hal qiladi va milliy qadriyatlarni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu tizim boshqa davlatlarda uchramaydigan noyob shakl hisoblanadi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari ko‘p sohalilik xususiyatiga ega. Ular ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport, ekologiya va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi. Bu esa jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, grantlar, subsidiyalar va turli imtiyozlar ajratilmoqda, huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Bu esa ularning yanada samarali faoliyat yuritishiga sharoit yaratmoqda. Mazkur masalalarga aholining munosabatini aniqlash maqsadida “Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan “Nodavlat notijorat tashkilotlarini aholining idrok etishi va ular bilan o‘zaro ta‘siri” mavzusida sotsiologik tadqiqot o‘tkazildi.

O‘tkazilgan so‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, fuqarolik jamiyati institutlari hususida aholi ijtimoiy ongida nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy tizimining dolzarb ijtimoiy vazifalar yechimida davlatning sa‘y-harakatlarini to‘ldiradigan muhim qismi sifatida idrok etiladi. Aholining ular haqidagi xabardorligi darajasi bo‘yicha ehtiyojmandlar, bemorlar va yetim bolalarga yordam berish, murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolarga manzilli yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlayotgan Hayriya va ijtimoiy yo‘naltirilgan NNTlar yetakchilik qilmoqda (43,5%). Natijalar yoshlarning salohiyatini rivojlantirishga (16,1%) va jamiyatda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga (15,0%) qaratilgan yoshlar va xotin-qizlar NNTlarining faoliyatidan fuqarolarning xabardor ekanligini ko‘rsatdi.

Jamoatchilik fikrida nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati haqidagi ijobiy baho ustunlik qiladi, jami 44,3% so‘rov ishtirokchilari aholining turli qatlamlari vakillarini tashvishga solayotgan, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilishda NNTlar hissasini, ijtimoiy himoya sohasida NNTlar ishi samaradorligini, yosh avlodni tarbiyalash va keksalarga g‘amxo‘rlik qilish, huquqiy bilimlarni oshirish, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilayotganini ta‘kidlashdi. So‘rov natijalari fuqarolik faolligining barqaror, ammo to‘liq ro‘yobga chiqarilmagan salohiyatini ko‘rsatdi: 37% respondentlar NNT faoliyatida ishtirok etishga tayyorligini bildirdi, 19,1% ishtirokchilar agar mavzu ularga yaqin bo‘lsa, tashabbuslarga qo‘shilishini ta‘kidlashdi. 42,6% fuqarolar NNT faoliyatida ishtirok etishga tayyor emas.

Tadqiqot natijalari NNTlarning rivojlanishini tiyib turadigan bir nechta asosiy to‘siqlarni aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, NNTlarning rivojlanishini tiyib turuvchi muhim omil bu ularning faoliyatiga fuqarolarning ishonchsizligi hisoblanadi (40,2%). Olingan ma‘lumotlar

jamiyatning kattagina qismi bunday tashkilotlar faoliyati bilan tanish emasligidan yoki ularga ehtiyotkorlik bilan qarashidan dalolat beradi, bu esa ularning ijtimoiy ta'sirini sezilarli darajada cheklaydi. Tadqiqot davomida, shuningdek, moliyaviy qiyinchiliklar va davlat tomonidan moliyalashtirishning yetarli emasligi (26,7%), malakali kadrlarning yetishmasligi va ish haqi darajasining pastligi (20,9%), davlat tomonidan yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmaslik va davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabatdagi byurokratik to'siqlar NNTlarning salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi.


Mamlakatimizda so'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy hayotdagi roli izchil ravishda kuchayib, ijtimoiy sheriklik amaliyoti kengayib bormoqda va dolzarb masalalar yechimida jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, aholining NNTlar haqidagi xabardorlik darajasi fuqarolik jamiyati yetukligining muhim indikatoriga aylanmoqda. 2025-2026-yillardagi so'rov natijalarining monitoringi aholining xabardorligi oshganligini ko'rsatdi. Bexabar fuqarolar ulushining 15,8% ga kamayishi va qisman xabardorlik darajasining 5,4% ga oshishi jamiyatda NNTlar haqidagi xabardorlikning izchil o'sib borayotgani hamda davlat va jamiyatda ularning roli haqida barqaror tasavvurning shakllanayotganini tasdiqlaydi.

2026-yilda 9,3% respondentlar NNTlarni turli tadbirlar, treninglar va aksiyalarni o'tkazadigan faol fuqarolar guruhi sifatida idrok etishini bildirishdi, bu 2025 yildagiga (3,4%) nisbatan 5,9% ga ko'p bo'ldi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jamiyatda NNTlarni idrok etish rivojlanishda davom etmoqda, fuqarolar orasida ular faoliyatining turli jihatlariga qiziqish va xabardorlik darajasi ortib bormoqda.

1- jadval.

Sizning fikringizcha, nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) nimani anglatadi?


Javob turlari	2025 y.	2026 y.
Odamlarga yordam beradigan va foyda ko'rish uchun ishlaymaydigan tashkilot	35,7	46,6
Davlat bilan bog'liq bo'lmagan, davlatdan mustaqil tuzilma	23,2	20,2
Ijtimoiy masalalarni hal qilishda davlat muassasalariga muqobil tashkilot	15,0	9,8
Hayriya tashkiloti	13,0	27,5
Ijtimoiy, ekologik, madaniy va boshqa muammolarni hal qiluvchi jamoat birlashmasi	4,3	13,0
Grantlar, Hayriyalar va ixtiyoriy yordam hisobiga faoliyat yuritadigan tashkilot	3,4	10,9
Siyosiy partiya	2,9	4,1



1- rasm. Siz NNTlar faoliyati haqida qaerdan bildingiz?

Monitoring natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlar va televidenie NNTlar haqida axborot tarqatishning asosiy kanallari bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga NNTlar haqidagi dolzarb axborotlardan qulay va tezkor ravishda foydalanish imkonini beradi. Raqamli kanallarning tobora ommalashib borayotganiga qaramay, televidenie ijtimoiy ahamiyatga ega, foydalanish uchun hammaga qulay va talab yuqori bo'lgan manba bo'lib qolmoqda.


So'rov natijalariga ko'ra, 32,3% respondentlar NNTlar mamlakat va jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi, deb hisoblaydi, ularning roli juda muhimligiga esa 12% so'ralganlarning ishonchi komil. Jami 44,3% fuqarolar aholining dolzarb muammolarini hal qilishda NNTlar hissasini ijobiy baholashdi hamda mamlakat va jamiyat hayotida ularning ahamiyatini e'tirof etishdi.



2- rasm. Sizning fikringizcha, bugungi kunda jamiyat va mamlakat hayotida NNTlar qanday rol o'ynaydi?

O'tkazilgan so'rov aholining dolzarb muammolarini hal qilishda jami 65,6% fuqarolarning NNTlarga u yoki bu darajada ishonishga tayyorligi eng muhim ijtimoiy muammolarni hal qilishda ushbu tuzilmalarning salohiyati tan olinishini aks ettiradi.

Monitoring NNTlarga bo'lgan ishonch darajasi barqaror bo'lib, ijobiy tendensiyalarga egaligini aniqladi. 2025-yilda jami 63,6% respondentlar nodavlat notijorat tashkilotlariga u yoki bu darajada ishonishga tayyor edi; 2026-yilda bu ko'rsatkich 65,6% gacha oshdi. Ushbu ko'rsatkichlarning ozgina o'sishi NNTlarga bo'lgan ishonchning asta-sekin mustahkamlanib borayotganidan, ijtimoiy makonda ularning yanada kengroq maydonga chiqayotganidan, aholining NNTlar bilan o'zaro ta'siridagi ijobiy tajribadan va ushbu tashkilotlarning ijtimoiy tashabbuslari va tadbirlarida fuqarolarning ishtirok etayotganidan, shuningdek, NNTlar faoliyatining tanilishi va shaffofligi oshayotganidan dalolat beradi.



3-rasm Siz mamlakatimizning NNTlariga qay darajada ishonasiz?

So'rov natijalariga ko'ra, 44,1% respondentlar NNTlar – o'zgarishlarga erishishning muhim vositasi va ular mamlakatdagi vaziyatni yaxshilashga real ta'sir ko'rsatishi mumkin, deb hisoblaydi. 39,1% respondentlarning tasavvurida ularning ta'siri ma'lum sohalar bilan cheklangan. Ushbu savolga javobda 12,5% respondentlar NNTlarning mavjud vaziyatdagi o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga shubha bildirishdi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari, o'zbekistonliklarning fikriga ko'ra, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati jamiyat uchun eng muhim va talablar


bo'lishi mumkin bo'lgan sohalar reytingini tuzish imkonini berdi. Tilga olinishlar soni bo'yicha birinchi o'rinni fuqarolarning ijtimoiy zaif toifalarini (nogironligi bo'lgan shaxslarni) ijtimoiy qo'llab-quvvatlash egalladi. 33,7% so'rov ishtirokchilari imkoniyati cheklangan kishilarni ijtimoiy integratsiyalash va qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratishda NNTlar faoliyatining yuqori samaradorligini ta'kidladilar.

Bolalar va yetimlar haqida g'amxo'rlik qilish ikkinchi o'rinni egalladi (33,2%). Respondentlar bolalarni himoya qilish va ular farovonligini ta'minlash sohasida NNTlar rolining muhimligini, shuningdek, NNTlarning bolalar, ayniqsa, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolganlar uchun zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tashabbuslari samaradorligini tasdiqladilar. Hayriya faoliyati va insonparvarlik yordamining (25,6%) uchinchi o'rinni egallaganligi muhtojlarni qo'llab-quvvatlash masalalariga yuqori ijtimoiy ta'sirchanlikdan dalolat beradi. Respondentlar inqirozli lahzalarda yordam ko'rsatish, shuningdek, uzoq muddatli ijtimoiy muammolarni hal qilishda NNTlar faoliyatining muhimligini anglashadi. Xotin-qizlarni, ayniqsa, murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolganlarni qo'llab-quvvatlash (23,4%) to'rtinchi o'rinni egalladi. Respondentlar mavjud gender tenglik muammolarini hal qilish va ayollar huquqlarini himoya qilish, zo'ravonlikdan jabrlanganlar, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelayotganlarni qo'llab-quvvatlashning muhimligini ta'kidladilar.

2-jadval.

Sizning fikringizcha, NNTlar qaysi sohalarida jamiyat uchun eng ko'p foyda keltirishi mumkin?

Javob turlari	2025 y.	2026 y.
Nogironligi bor kishilarni qo'llab-quvvatlash	32,0	33,7
Bolalar va yetimlarni qo'llab-quvvatlash	28,7	33,2
Ayollarga, ayniqsa, murakkab hayotiy vaziyatdagilarga yordam berish	18,9	23,4
Ta'lim, ma'rifat, kurslar va treninglar	15,7	17,1
Hayriya va insonparvarlik yordami	14,6	25,6
Sog'liqni saqlash, og'ir kasallarga yordam berish	13,4	21,0
Yoshlar bilan ishlash, yetakchilikni rivojlantirish va faollik	10,6	12,2
Inson huquqlarini himoya qilish	7,1	6,6
Hunarmandlar, o'zini o'zi ish bilan ta'minlaganlar va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash	5,7	6,8
Ekologik tashabbuslar (tozalik, ko'kalamzorlashtirish, chiqindilarni qayta ishlash)	4,1	8,5
Zo'ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish	3,9	6,8
Boshqa	-	8,6
Aytishim qiyin	5,4	2,7



4-rasm. Siz NNTlar faoliyatida shaxsan ishtirok etishga tayyormisiz?


2025 va 2026-yillardagi so'rov ma'lumotlarining monitoringi shuni ko'rsatdiki, umuman olganda, fuqarolarning NNTlar faoliyatida ishtirok etishga tayyorlik darajasi sezilarli o'zgarishsiz

barqaror bo‘lib qolmoqda. Olingan natijalar fuqarolarning NNTlarga barqaror qiziqishini va fuqarolik tashabbuslarida aholining faolroq ishtirok etishiga to‘sqinlik qilayotgan doimiy to‘siqlar mavjudligini tasdiqlaydi.

So‘rovning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish shakllari bo‘yicha natijalari shuni ko‘rsatdiki, fuqarolar NNTlarni qo‘llab- quvvatlash va ular bilan o‘zaro munosabatning turli usullariga qiziqish bildirmoqdalar.

So‘rov davomida mamlakatdagi nodavlat notijorat tashkilotlari sonining yetarliligi borasida fuqarolarning fikri qutblashganligi aniqlandi. 29,2% fuqarolarning fikriga ko‘ra, mamlakatdagi mavjud NNTlar soni yetarli, 33,8% respondentlar esa qarama-qarshi nuqtai nazarni bildirdi. Respondentlarning uchdan bir qismidan ko‘prog‘i (37,3%) bu masala bo‘yicha aniq fikr bildira olmadi.

2025-2026-yillardagi so‘rov natijalarining monitoringi mamlakatdagi nodavlat notijorat tashkilotlari sonini yetarli, deb hisoblaydigan fuqarolar soni ko‘payganini, ayni vaqtda qarama-qarshi nuqtai nazardagilar soni esa kamayganini aniqladi.



5-rasm. Siz mamlakatimizdagi nodavlat notijorat tashkilotlarini yetarli, deb hisoblaysizmi?

Tadqiqot natijalari ko‘rsatganidek, fuqarolar O‘zbekistonda NNTlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan bir nechta asosiy to‘siqlarni sanab o‘tishdi. Asosiy muammo “NNTlar faoliyati haqida aholida axborotning yetishmasligi” hisoblanadi (40,9%). So‘rov ishtirokchilarining fikriga ko‘ra, eng keng tarqalgan ikkinchi sabab “bunday tashkilotlarga aholining ishonmasligi”dir (40,2%). So‘rov davomida respondentlar NNTlar samaradorligini pasaytiradigan omil sifatida “moliyaviy qiyinchiliklar va davlat tomonidan yetarli darajada moliyalashtirilmaslik”ni (26,7%) keltirdilar. Fuqarolar “malakali kadrlarning yetishmasligi va ish haqi darajasining pastligi”ni (20,9%) ham NNTlar rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan muhim omil deb hisoblashdi.

Shuningdek, fuqarolarning fikricha, “davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlashning va ma‘muriy resurslarning mavjud emasligi” (11,6%) va “davlat organlari bilan o‘zaro munosabatdagi byurokratik to‘siqlar” (10,1%) NNTlar faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi

Jamiyat – bu insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi bo‘lib, uning barqarorligi ma‘naviy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy-ma‘naviy muhit jamiyat barqarorligini ta‘minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Ma‘naviy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining muhim mezoni hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutlari aynan ushbu qadriyatlarni shakllantirish va saqlashda muhim rol o‘ynaydi [10].

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Ayniqsa, so‘nggi islohotlar davrida nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat fondlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratildi.

Fuqarolik jamiyati – bu oila, davlat va bozordan tashqarida odamlar umumiy manfaatlarni ilgari surish uchun birlashadigan maydon [11]. Fuqarolik jamiyati ijtimoiy munosabatlar va umumiy

manfaatlarni ilgari surishda mustaqil maydon sifatida namoyon bo'ladi. Kuchli fuqarolik jamiyati demokratiya, hisobdorlik va ijtimoiy hamjihatlik uchun juda muhimdir. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanganligiga bog'liq [12].

Ijtimoiy kapital shaxslar o'rtasidagi aloqalarni – ijtimoiy tarmoqlarni va ulardan kelib chiqadigan o'zaro ishonch normalarini anglatadi. Fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy kapitalni shakllantirish orqali ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtiradi. Ijtimoiy tashkilotning tarmoqlar, normalar va ishonch kabi xususiyatlari o'zaro manfaat uchun muvofiqlashtirish va hamkorlikni osonlashtiradi [13]. Jamiyatda ishonch va hamkorlikni shakllantirish fuqarolik jamiyatining asosiy funksiyalaridan biridir.

Fuqarolik jamiyati institutlari jamoat nazoratining asosiy subyektlari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutlari davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi [14].

Nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadi. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda NNTlar aholi manfaatlarini ifoda etuvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi [15]. Ular jamiyatda ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Fuqarolik faolligini oshirish orqali NNTlar ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy muhitni mustahkamlaydi.

Rivojlangan davlatlarda, xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya va Germaniyada fuqarolik jamiyati institutlari yuqori darajada shakllangan. Ushbu mamlakatlarda:

- Nodavlat tashkilotlar soni juda ko'p va ular moliyaviy jihatdan mustaqil;
- Fuqarolarning jamoat ishlarida ishtirok etishi yuqori;
- Davlat organlari ustidan kuchli jamoat nazorati mavjud;
- Grantlar va Hayriya madaniyati rivojlangan.

Masalan, AQShda NGolar davlat siyosatini shakllantirishda faol ishtirok etadi va lobbizm tizimi orqali o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Rivojlanayotgan davlatlar, jumladan Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiyada fuqarolik jamiyati institutlari o'rtacha rivojlangan hisoblanadi. Bu davlatlarda:

- NNTlar soni o'sib bormoqda;
- Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mavjud;
- Biroq moliyaviy mustaqillik va ta'sir darajasi hali to'liq shakllanmagan.

O'zbekiston ushbu mamlakatlar bilan o'xshash rivojlanish bosqichida bo'lsa-da, so'nggi islohotlar natijasida ayrim yo'nalishlarda ilgarilab bormoqda. Chunki, Yangi O'zbekistonda, fuqarolar jamiyati institutlari faoliyati davlat siyosati bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. O'zbekistonda Mahalla instituti, Yoshlar tashkilotlari, "Hunarmand" uyushmalari, "Yuksalish" harakati, "Sog'lom avlod" jamg'armalari boshqa davlatlarga nisbatan o'ziga xos va noyob ijtimoiy tizimlar hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur institutlar jamoat nazoratini amalga oshirish orqali ijtimoiy adolatni ta'minlashga hissa qo'shadi. Davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining kuchayishi qonun ustuvorligini ta'minlashga, korrupsiya va turli salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Bu esa fuqarolarda adolatga ishonchni mustahkamlab, ijtimoiy muhitning sog'lomlashishiga zamin yaratadi.

Ayniqsa, yosh avlodni turli zararli g'oyalar va mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish – bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Fuqarolik institutlari ana shu vazifalarni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish jamiyat barqaror taraqqiyotining muhim sharti hisoblanib, bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, mahalla va boshqa jamoat birlashmalari jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlash hamda aholining faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim funksiyalarni bajaradi.

Aniqlandiki, fuqarolik jamiyati institutlari orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy nazorat, jamoatchilik fikrini shakllantirish va davlat hamda jamiyat o'rtasidagi muloqot mexanizmlari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur institutlarning faolligi darajasi ijtimoiy muhitning sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqaror va sog'lom rivojlantirish uchun fuqarolik jamiyati institutlarining institutsional salohiyatini mustahkamlash, ularning davlat bilan hamkorligini kengaytirish va aholi faolligini oshirish zarur. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, hamjihatlik va ma'naviy yuksalishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda tarbiyachi, tashabbuskor va nazoratchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ularning faolligi va samaradorligi orqali jamiyatda yuksak ma'naviyat, ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyot ta'minlanadi.

Adabiyotlar/Literatura/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – B.3.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 76-81.
3. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – B.202-209.
4. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent, 2024. – B.53-58.
5. Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz>.
6. Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz>
7. Bekmurodov M. Ijtimoiy davlat siyosati. – Toshkent: DSBA nashriyoti, 2025. – B.18-26.
8. Qodirov A. Fuqarolik jamiyati nazariyasi. – Toshkent: "Fan", 2018. – B.16-21.
9. Jo'rayev N. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
10. Saidov A. Ijtimoiy falsafa. – Toshkent: Universitet. 2019. – B.61-73.
11. Edwards M. Civil society (3rd ed.). Cambridge: Polity Press. 2014.
12. Evers A., & Laville, J.-L. (2004). The third sector in Europe. Cheltenham: Edward Elgar.
13. Putnam R.D. Bowling alone: The collapse and revival of American community. – New York, 2000. Simon & Schuster.
14. Jamoat nazorati to'g'risidagi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. – Toshkent, 2014.
15. Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risidagi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. – Toshkent, 1999.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000